



APPLE KOMPANIYASI TARIXI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI

ERGASHEV ALISHER,

Stars international university 21/B

guruh talabasi

alisherergashev777@icloud.com

ILMIY RAHBAR: PHD,

SHODIEV E.T.,

Stars international university Ilmiy

kengash ilmiy kotibi

<https://doi.org/10.47689/STARS.university-pp98-103>

Annotatsiya: Maqolada Apple kompaniyasi tarixi va rivojlanish bosqichlari o'rganilgan. Jumladan, IT-mahsulotlar, telekommunikatsiya vositalari, Hi-tech kompaniyalar xususiyatlari tadqiq etilgan.

Kalit so'zlar: Apple kompaniyasi, IT-mahsulotlar, telekommunikatsiya vositalari, Hi-tech kompaniyalar.

KIRISH

Apple kompaniyasiga 1976-yil 1-aprelda Stiven Pol Jobs, Stiven Gari Voznyak va Ronald Gerald Ueynlar tomonidan asos solingan.

Apple birinchi 30 yil ichida Apple Computer Inc. deb nomlandi. Keyinchalik u 2007-yil 9-yanvar kuni Apple Inc. deb o'zgartirildi. Kompyuter so'zi uning elektron bozorini kengaytirish uchun olib tashlangan. 2009 yilda Apple sotgan har bir iPhone uchun 625 dollar foyda ko'rgan va ularning soni 40 millionga yetdi.

Dunyo bo'ylab Apple uchun 80 000dan ortiq xodimlar ishlaydi.

Kuniga 340 000 iPhone sotiladi. 2012 yilda Apple eng ko'p telefon sotgan yil hisoblanadi.

Apple daromadi daqiqasiga 300 000 AQSh dollariga teng.

Stiv Jobs buddist hisoblanadi.

"Dulcimer" – iPod uchun kod nomidir.

Stiv Jobs Apple kompaniyasining har bir xodimiga bepul iPhone sovg'a qiladi.

Apple barcha mahsulotlarini havo orqali yetkazib beradi. Cathay Pacific kompaniyasining eng katta yuk mijozi bu Appledir.

1997-yilda Bill Geyts Appleni inqirozdan saqlash uchun 150 million dollar sarmoya kiritgan.

Apple kompaniyasi ishlab chiqargan texnikalar oldida chekish mumkin emas, chunki uning kafolatiga putur yetishi mumkin.

Menimcha, Apple kompaniyasini hamma tanisa kerak. Apple kompaniyasini eslaganimizda, birinchi navbatda, tishlangan olma xayolimizga keladi. Nimaga bunaqa logo ishlatilganligi hali-hanuz jumboq, lekin bu logoni yasagan dizaynerning aytis-

hicha, olmaning tishlanganligining sababi u pomidorga o'xshab qolmasligi uchun ekan.

2001-yil Apple musiqa tinglash uchun mo'ljallangan iTunes programmasini chiqardi. O'sha yili portativ musiqa pleyeri iPod sotuvga chiqarildi. Bu mahsulot butun dunyo bo'yicha xaridorlarga manzur bo'ldi. Bu muvaffaqiyatdan keyin iTunes musiqa sotib olish sayti ochildi. 2003-yil aprelda ochilgan bu saytdan shu kungacha 10 milliarddan oshiq kuy ko'chirib olindi. 2007-yil ko'p funksiyali iPhone telefoni, 2010 yil esa iPad planshet kompyuteri sotuvga chiqarildi. Bu ikkala mahsulotlar ishlab chiqilishini va ommaga tanitishni Jobsning shaxsan o'zi faol olib borgan.

Apple kompaniyasi brendi haqida

Apple kompaniyasi eng qimmat brendlarning karvonboshchisi hisoblanadi. Hozirgi kunda Apple kompaniyasining brendi narxi 263.38 mlrd. dollar hisoblanadi.

"Apple-1" kompyuteri 666,66 dollarga sotildi.

Dunyodagi eng ko'p suratga olingan diqqatga sazovor joy – Manxettenning Bes-hinchi avenyusida joylashgan "Apple Store".

Apple birinchi marta 1989 yilda boshlangan Microsoft bozor kapitallashuvi musobaqasida 2010 yilda g'olib chiqqan.

Apple kompaniyasining birinchi onlayn-do'koni 1997-yil 10-noyabrda ochilgan.

Apple kompaniyasining eng birinchi chakana savdo do'konlari Kaliforniya va Virjiniyada bo'lgan.

Apple Campus 1993-yilda qurilgan. Ushbu shtab-kvartirada umumiy maydoni 850 ming kvadrat metr bo'lgan oltita bino mavjud.

Koronavirus pandemiyasi Apple kompaniyasining moliyaviy holatiga salbiy ta'sir ko'rsatmadi. Kompaniya daromadlari 2020 moliya yilining to'rtinchi choragida rekord darajada o'sgan.

Joriy yilning 26 sentyabrida yakunlangan uch oylik natijalarga ko'ra, kompaniyaning daromadi 64,7 milliard dollarni tashkil etgan. Ya'ni 2019 moliya yilining shu davriga nisbatan o'sish qayd etilgan. O'shanda kompaniya daromadi 64 milliard dollarni tashkil etgan.

Shu bilan birga, kompaniyaning bosh ofisi joylashgan Kupertinoda sof foyda biroz pasaygan. Ya'ni sof foyda bir yil oldingi 13,7 milliard dollardan 12,6 milliard dollarga tushgan.

Butun 2020 moliya yilida esa Apple daromadi 274,5 milliard dollarga yetgan. O'tgan yilgi daromad esa 260,2 milliard dollarga teng bo'lgan.

Apple kompaniyasining 2021-yilning oktyabrdan dekabrigacha bo'lgan chorakdagi daromadi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 11%ga o'sib, \$123,9 mlrd. ni, foydasi esa 25% ga o'sib, \$34,6 mlrd.ni tashkil qildi.

iPhone daromadi esa 9% ga o'sib, \$71,63 mlrd.ni tashkil etdi. Xizmatlardan tushgan daromad (Apple TV+, Apple Music va boshqalar) 24% ga o'sib, \$19,52 mlrd.ga yetdi.

Shuningdek, Mac daromadi ham yiliga 25% ga oshib, \$10,85 mlrd.ni tashkil etdi, Apple Watch, AirPods, maishiy texnika va boshqalar 13% ga o'sib, \$14,7 mlrd. daromad olindi.

Apple daqiqasiga 691,2 ming dollar daromad ko'radi.

Applening ustunligi: iPhone smartfonlari eng ko'p sotilgan telefonlar reytingida birinchi o'rinni egalladi.

iPhone smartfonlarining 5 ta modeli 2022-yil aprel oyida eng ko'p sotilgan o'ntalikdan o'rin oldi. E'tiborlisi shundaki, 5 ta modeldan 4 tasi birinchi qatorlarda joylashgan. iPhone 13 butun bozorning 5,5 foizini egallab, eng ko'p sotilgan mahsulotga aylandi. Apple iPhone 13 Pro Max 3,4% savdo bilan ikkinchi o'rinni egalladi. Uchinchi o'rinda iPhone 13 Pro 1,8% ulush bilan, iPhone 12 esa 1,6% ulush bilan to'rtinchi o'rinda turibdi.

Amerikaning Beyond Identity xavfsizlik kompaniyasi tomonidan o'tkazilgan so'rov natijalariga ko'ra, Android smartfon egalarining 49 foizi xavfsizlik nuqtayi nazaridan Apple gadgetlarining ustunligi tufayli iPhone'ga o'tishni rejalashtirishmoqda.

Qayd etilishicha, iPhone foydalanuvchilarining 76 foizi iOS bilan o'zlarini xavfsizroq his qiladilar. Android foydalanuvchilarining 74 foizi ham xuddi shunday fikrda.

Ayniqsa, iPhone 13 foydalanuvchilari hozirgi gadgetlarini shu paytga qadar ishlatgan smartfonlari orasida eng xavfsizi deya e'tirof etishmoqda.

Apple kompaniyasining ish jarayoni haqida

Apple kompaniyasida qonuniy ishlaydigan har xil soha vakillari mavjud: sport fotoqraflari, hujjatli kino rejissyorlari, hamshira, ssenariy mualliflari, fizik-teorik va boshqalar.

Apple ishchilari uchun yagona bepul yegulik olma hisoblanadi.

Apple kompaniyasida ish jarayoni qat'iy belgilanmagan va rasmiy ko'rinishga ega emas, bu degani har xil rasmiy majlislar kamdan kam o'tkaziladi deganidir.

Kompaniya ishchilari uchun statistika katta ahamiyatga ega, u yerda katta oq doska mavjud bo'lib, statistik ma'lumotlar doimiy ravishda o'zgarib turadi.

Apple kompaniyasida birinchi ish kunini boshlagan ishchilar kompaniya tomonidan berilgan Apple logotipiga ega futbolka kiyib yurishlari shart.

Ko'p yangi ishchilar, asosan, o'ylab topilgan, kerak bo'lmagan loyihalar ustida ishlashadi. Bu haqida ular vazifani topshirish davomida bilib qolishadi. Bu orqali ish beruvchilar yangi ishchilarning dunyoqarashi, fikrlashi va, albatta, sabrini sinab olishar ekan.

iPhone debyuti Macworld konferensiyasida 2007-yilda o'tkaziladi, bungacha esa Kupertinodagi Apple bosh qarorgohida maxfiy loyiha bo'lib o'tadi. Telefon ustidagi ishlar rasman 2004 yil so'ngida boshlangan va yuzlab xodimlar kompaniya uchun misli ko'rilmagan maxfiylik sharoitida ish olib borishadi – ofislarning bir qismi hattoki qaytadan rejalashtiriladi.

Apple jamoasi ish olib borayotgan qavat videokuzatuv ostida edi va u yerga kirish maxsus ruxsatnomalar orqali amalga oshirilardi. U "Binafsharang yotoq" deb atalardi, uning devorlariga esa 2012-yil Forsall sud jarayonida aytib o'tganidek, "Jangarilar klubi" kitobidan ushbu iqtiboslar bitilgandi: "Binafsharang" loyihaaning birinchi qoidasi shuki, bu yerda ko'rgan narsalaringizni eshikdan tashqarida tilga olmaysiz".

Kompaniya ishini ko'p yillar davomida yoritgan jurnalist Fred Fogelshteyn Apple va Googlening smartfonlar olamida yetakchilikni qo'lga olish uchun poygasi haqida kitob yozadi. Uning aytishicha, Jobs yangi telefon haqidagi ma'lumotlar sizib ketishining oldini olishni o'ta muhim deb hisoblagan.

Uning hikoya qilishicha: "Siz dushanba kuni ishga kelganingizda hamma narsa o'zgarganiga guvoh bo'lishingiz mumkin. Dam olish kunlarida ishchilar

ofis rejalashtirilishini o'zgartirishgan, sizga esa hech kim hech narsa demagan bo'lardi".

Xodimlar hamkasblari va hattoki oila a'zolariga ham nima ustida ish olib borisha-yotganini ayta olishmasdi. Qayta-qayta ishlanmalar, murakkab sharoitdagi mehnat xodimlarning asabiga ta'sir o'tkaza boshlagan. Kunlarning birida farzandlarini kim eng uzoq ko'rmagani ustida bahs boshlangach, menejerlardan biri jahl bilan eshikni shunday yopib chiqib ketadiki, uning qulfi buzilib qoladi. Usta chaqirishning imkoni bo'lmaydi va Forstal, Grinon va boshqalar navbati bilan eshikni po'latdan tayyorlangan beysbol tayog'i bilan urib sindirishga harakat qilishadi.

Grinon shunday eslaydi: "Ha, mana shu voqea o'shanda nimalarni his qilganimizni yaxshigina tasvirlab bera olsa kerak. Bolalarini uzoq vaqtdan beri ko'rmagan, turli bo'limlardan kelgan insonlar tayoq bilan eshikka chunonam zarba berishardiki... Ta-savvur qilyapsizmi?".

Bir necha muvaffaqiyatsiz prototiplari yaratilmaganida bugun biz bilgan iPhone dunyo yuzini ko'rmagan bo'larmidi?

"iPod chambaragini eslaysizmi? O'qish, pauza, keyingi qo'shiq, oldingi qo'shiqqa o'tkazuvchi qurilma. "Endi esa raqam va harflardan iborat shunday chambarakni tasavvur qiling – matnli xabarlarini ham diskli telefonni aylantirgandek terish kerak edi. Bu nihoyatda rasvo edi, chindan ham bo'lmag'ur ish edi, lekin u bizning dastlabki urinishimiz bo'lgan".

Applening sobiq katta vitse-prezidenti Toni Fadellning so'zlariga ko'ra, SIM-karta uchun bo'lmagan ham imkon qadar qutilishga harakat qilishgan. Dastlabki namunalarda shisha o'rniga ekranlar plastik qoplamali bo'lgan. Ekran sirtidagi ramka borasida ham tortishuvlar bo'lib o'tgan, jamoalardan biri esa operatsion tizimini Mac OS X emas, Linux asosida yaratishni taklif etgan.

iPhonedagi klaviaturaning yo'qligi Applening eng ziddiyatli, alal-oqibatda esa muvaffaqiyatli yechimlaridan biri bo'lgan. Grinonning eslashicha, qaysi bir davrda jamoa yupqa membranali, bosish lozim bo'lgan kvadratsimon klavishlarni ham sinovdan o'tkazgan.

Fadell shunday deydi: "Klaviatura apparatli yoki dasturiy bo'lishi kerakmi? Bu eng muhim qaror bo'lgan. Albatta, dasturiy klaviatura apparatligi bilan bahslashmasdi, lekin unda yana bir necha afzalliklar bor edi".

Uch yil ichida loyiha bir necha bor boshi berk ko'chaga kirib qolgan. Grinon shunday eslaydi: "Bu qo'rqinchli tush edi. Halokat! Bir necha bor biz shunchaki ishlaydigan mahsulot yarata olmaganmiz".

Natijada iPhone mutlaqo yangi qurilma sifatida namoyon bo'lgan – protsessoridan tortib, operatsion tizimiga qadar. Kiritish usuli ham yangi bo'lgan, shu sababli barcha ilovalarni ham noldan boshlab yasashgan.

Grinon shunday deydi: "Menga bu ishni uddalaganimiz hanuzgacha mo'jiza bo'lib tuyuladi. Chunki bir necha bor paydo bo'lgan muammoni qanday hal qilishni bilmay boshimizni changallab qolganmiz, chunki hech kimda kerakli tajriba bo'lmagan, Appleda esa ahmoqlar ishlamasdi".

Muammolar faqat texnik emasdi. iPhone 4 baridan topib olingan mashhur voqeadan oldin Fadell Germaniyaga uchayotgan samolyot bortida ilk iPhone prototipini yo'qotib qo'yadi. U izlanayotgan qurilma, aslida, nima ekanligini aytmasdan, odamlardan yordam so'raydi:

“Qora, to‘rtburchak narsa. Bir tomoni shishali, orqasi plastik. O‘yin qartasi kolodasidan sal kattaroq. Iltimos, uni topishda yordam beringlar, menga juda zarur”.

Nihoyat, telefon o‘rindiqliq yostiqchalari orasidan topiladi.

So‘ngra sahnada taqdimot o‘tkaziladi, unda ham vaziyat istalgan daqiqada izdan chiqib ketishi mumkinligidan, jamoa zaxirada bir nechta tayyor telefonlarni qo‘llarida ushlab turishgan, biroq hammasi xamirdan qil sug‘urgandek o‘tadi va shu daqiqadan boshlab iPhone haqida butun dunyo bilib oladi.

Grinon shunday deydi: “Bu mening eng yomon professional tajribam bo‘lgan, bir vaqtning o‘zida u eng yaxshisi va ehtimol, men erishgan eng yuksak natija ham bo‘lsa kerak”.

iPhonening Android telefonlaridan eng katta ustunligi uning ulkan app ekotizimidir. Devayslar ichida birinchi haqiqiy App Store egasi iPhone bo‘lib, natijada developerlar birinchi aynan unga moslab dastur tuzishadi. Misol uchun, Instagram iPhone da anchadan beri mavjud bo‘lib kelgan bo‘lsa, Facebook o‘z dasturini Androidda yangilash(Upgrade)dan avval iPhone da qayta dizayn yaratdi. Applening rasmiy bayonotida so‘nggi bor App Store da ilovalar soni 700,000 dan oshgan.

Bu ham yetmagandek, iPhone Twitter va Facebook bilan chuqur integratsiya (birlashuv)ga ega, oqibatda platformaning o‘zidan turib status yangiliklari kiritish mumkin. Appni chuqur kastomizatsiya(moslashtirish) qilish shart emas.

Bundan tashqari, Apple o‘ziga xos iPhone ga ixtisoslashgan dasturlar, masalan, Passbook kabilarga ega. Hozirda cheklangan xizmatga qaramay ushbu dastur har xil qo‘shimcha bilet, savdo chegirmalari (gift certificate)ni tartiblash imkonini beradi.

Eng muhimi esa, foydalanuvchi tajribasi (user experience) qulflangan. Bu degani – telefoningizning ichki ishlash va ko‘rinishini ko‘nglingiz tusagancha o‘zgartir olmay-siz degani, masalan, klaviatura. Lekin texnologiyaga uncha “mukkasidan ketmaganlar”ga yoki kastomizatsiya shaydosi bo‘lmaganlarga bu ayni muddao bo‘lishi ham mumkin.

Facebook hamda Twitter bilan chuqurroq birlashuv, ya‘ni yangiliklarni kiritish va ijtimoiy sahifalarda bo‘lishish iOS da Androiddan ko‘ra osonroq.

Nisbatan yaxshiroq shaxsiyat muhofazasi: iOS foydalanuvchining kontakt va joylashuvini talab etuvchi dasturlar ustidan yaxshiroq nazorat o‘rnatgan.

2007-yili esa kompaniyaning eng mashhur taqdimotida revolyutsion Iphone smartfonini namoyish etadi. Ushbu qurilma barcha smartfonlar, aslida, qanday bo‘lishi kerakligini belgilaydi. Aynan shu yili kompaniyaning I Mac, iPod Touch, Apple TV kabi mahsulotlari bozorda paydo bo‘ldi.

2008-yili kompaniya o‘zining Appstore ilovalar do‘konini ishga tushirdi. Shuningdek, Macbook Air noutbuki va Iphone 3G smartfonini 2009-yilda namoyish etdi. 2010-yili kompaniya o‘zining iPad nomli birinchi plansheti va Iphone 4 ni taqdim etadi.

2011-yil Stive o‘z o‘rnini Tim Kukga bo‘shatdi. Aynan shu yili Apple kapitalizatsiyasi 662.09mlrd. dollarga yetib, ilk bor eng qimmat kompaniyaga aylandi. Shuningdek, kompaniyaning yangilangan Iphone4s smartfoni ham bozorda paydo bo‘ldi. 2011 yilning 5 oktyabrida esa 56 yoshli kompaniya asoschisi Stive Jobs dunyodan ko‘z yumdi.

2012-yil kompaniya uchun omadli keldi. Aynan shu yili kompaniya Iphone 5, Retina ekranli Macbook Pro, iPod Touch 5g musiqiy pleyeri va yangilangan I Mac quril-

malarini namoyish etishga muvaffaq bo'ldi. Bir yildan so'ng esa kompaniya ilk barmoq izi skaneriga ega Iphone 5S va nisbatan arzon hisoblangan 5c smartfonlarini namoyish etdi.

2014-yili katta mashhurlikka erishgan Iphone 6 va 6 Plus smartfonlari, 2015 yili esa 6s, 6s Plus smartfonlari namoyish etildi. 2016 yili kompaniyaning Iphone 5 ni eslatuvchi SE nomli smartfoni va 7-avlod smartfonlari bozorda paydo bo'ldi.

2017-yili Iphone smartfoni chiqarilganiga 10 yil to'ldi. Shu munosabat bilan Apple o'zining Iphone X nomli smartfonini taqdim etdi. Smartfon qirg'ilgan ingichka ramkali yangicha inson yuzini tanuvchi Face-ID nomli tizimga asoslangan revolyutsion qurilma bo'ldi. Shuningdek, navbatdagi Iphone 8 va 8 Plus ham aynan shu yili namoyish etildi.

2018-yilning 12 sentyabr kuni Apple o'zining navbatdagi taqdimotini o'tkazdi. Taqdimotda 3ta iPhone XS / iPhone XS Max, nisbatan arzon iPhone XR smartfonlari va Apple Watch series 4 smart soati ommaga taqdim etildi.

2019-yilning 10 sentyabrida esa Iphonening 11 avlod smartfonlari 11, 11 Pro va 11 Pro max insonlarga taqdim etildi.

2020-yilning boshida insonlar karantinda niqoblar orqali FaceID tizimi yaxshi ishlamayotganidan norozilik bildira boshlashdi. Bundan foydalangan kompaniya Iphone 8 takrorlovchi barmoq izi skaneriga ega Yangi Iphone smartfonini namoyish etdi. Shuningdek, yil so'ngiga qadar m1chipiga asoslangan Macbook, Ipad Air4 planshetlari va Iphonening 12 avlod barcha smartfonlarini taqdim etdi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

2021-yilning aprel oyida ham Apple o'zining yangi taqdimotini o'tkazdi. Taqdimotda kompaniya yangilangan Imac m1chiga asoslangan Ipad Pro yangicha siyoh rangli Iphone 12 va kichik buyumlarni qidirishga ixtisoslashgan Airtag kabi qurilmalarni namoyish etdi. Kompaniyaning navbatdagi taqdimoti shu yilning sentyabr oyida o'tkazilishi kutilmoqda. Taqdimotda Iphone 13 avlod smartfonlari va boshqa qurilmalar namoyish etiladi.

Shuningdek, kelajakda kompaniya elektromobillar ishlab chiqarishni rejalashtirayotganini aytib o'tdi. Bu borada taniqli Tesla kompaniyasi bilan hamkorlik ishlari boshlab yuborilgan.

Ayni vaqtda kompaniyaning kapitalizatsiyasi 2.19 trln. dollarni tashkil etib, 147.000 dan ortiq kishini ish bilan ta'minlamogda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Apple kompaniyasi haqida qiziqarli ma'lumotlar. <https://zamin.uz/uz/texnologiya/63718-apple-kompaniyasi-haqida-qiziqarli-malumotlar.html>.

2. Apple haqida siz bilgan va bilmagan 14 fakt. <https://www.terabayt.uz/uz/post/apple-haqida-siz-bilgan-va-bilmagan-14-fakt>.

Apple: kompaniyaning boshlanishidan hozirgi kungacha rivojlanish bosqichlari. <https://www.biznesrivoj.uz/articles/apple-kompaniyaning-boshlanishidan-hozirgi-kungacha-rivojlanish-bosqichlari>.